

# **JIZZAX SHAHRIDA SODIR BO‘LGAN YO‘L-TRANSPORT**

## **HODISALARI TAHLILI**

*Mizrabov Ulug‘bek Bolqul o‘g‘li  
Jizzax Politexnika instituti assistenti  
Dinakaran Sabapathy ,  
Sambhram, B.tech fakulteti o‘qituvchisi|  
Xaytbayev Ergash Baxtiyor o‘g‘li  
Jizzax Politexnika instituti assistenti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Jizzax shahri hududida sodir bo‘lgan yo‘l transport hodisalari tahlili va ularni kamaytirish bo‘yicha chora tadbirlar haqida xulosalar bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Yo‘l transport hosisasi, miqdoriy usul, topografik usul, sifat, absolut ko‘rsatgich, nisbiy halokatlilik ko‘rsatgichi, solishtirma halokatlilik ko‘rsatgichi.

**Abstract.** This article presents conclusions about the analysis of road traffic accidents that occurred in the territory of the city of Jizzakh and measures to reduce them.

**Key words:** Road transport characteristics, quantitative method, topographic method, quality, absolute index, relative fatality index, relative fatality index.

Harakat xavfsizligini tashkil etish uchun aniq tadbirlar belgilashda asosiy tayanch ko‘rsatma sifatida yo‘l transport hodisalarini har taraflama chuqr ob‘ektiv tahlil qilish natijalaridan olingan xulosalardan foydalaniladi.

Yo‘l transport hodisalari quyidagi vazifalarni hal qilish maqsadida tahlil qildik:

- Jizzax shahrida harakat xavfsizligiga taalluqli «Avtomobil-haydovchi-yo‘l-piyoda-muhit» tizimiga kiruvchi har bir faktorning faoliyatiga tegishli tadbir va choralar ishlab chiqish uchun;

- Shaxardagi biron-bir boshqaruv territoriyasidagi, vazirliklardagi va ularning korxonalaridagi falokatlar ahvolini, o‘zgarish mohiyatini hamda istiqboldagi o‘zgarishini bashorat qilish maqsadida;
- Yo‘l transport hodisalarining kelib chiqish sabablarini va ularni bartaraf qilish borasida tuziladigan ko‘rsatmalarni ishlab chiqish uchun;
- Yo‘l transport hodisalari ko‘p qaytariladigan yo‘l bo‘laklarini aniqlash maqsadida;
- Shahardagi bitta yoki bir nechta bir xil yo‘l transport hodisalarining vujudga kelish sabablarini aniqlash uchun;
- Yo‘l transport hodisalarini tahlil qilish uchun universal dastur tuzish maqsadida.

Maqsad va vazifalariga qarab yo‘l transport hodisalarini tahlil qilishning *miqdoriy*, *sifat* va *topografik* usullari mavjud. Yo‘l transport hodisalarini miqdoriy usul bilan tahlil qilishda halokatlarning absolyut, nisbiy va solishtirma ko‘rsatkichlari o‘rganildi.

***Halokatlarning absolyut ko‘rsatkichlariga*** quyidagilar misol bo‘ladi: Yo‘l transport hodisalarining umumiyligi (yillik, oylik, choraklik) soni; yo‘l transport hodisalarida jarohat olganlar (o‘lganlar) soni; jarohat olganlarning yoki o‘lganlarning yoshiga, kasbiga qarab yo‘l transport hodisalaridagi soni; haydovchilarning aybi bilan o‘lganlar, jarohat olganlar soni; avtomobil yoki ular holatining nosozligi bilan bo‘lgan yo‘l transport hodisalari soni va h.k.

***Solishtirma halokatlilik ko‘rsatkichi***. Yo‘l transport hodisalar biron-bir absolyut ko‘rsatkichidan boshqa yo‘l transport hodisalar qancha qismini tashkil qilishi tushuniladi va odatda foiz ko‘rsatkichida keltirildi. Masalan, jami yo‘l transport hodisalar sonidan to‘ntarilish (to‘qnashish, piyodalarni bosib ketish yoki yo‘l transport hodisalar halok bo‘lgan bo‘lganlar, jarohat ko‘rganlar va h.k.) necha foizni tashkil qiladi.

**Nisbiy halokatlilik ko‘rsatkichlari.** Nisbiy halokatlilik ko‘rsatkichlarini hisoblashda bitta absolyut ko‘rsatkich boshqa absolyut ko‘rsatkichga nisbatan olindi.

Yo‘l transport hodisalarini oylar bo‘yicha tahlili quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

YTH	Oylar											
	Yan	Fev	Mart	Apr	May	Iyun	Iyul	Avg	Sen	Okt	Noy	Dek
Umumi y soni	6	8	5	7	10	6	15	19	13	8	13	10
	3	1			1			4		1	1	2
Jarohat olganlar	7	10	8	8	15	7	16	19	18	13	15	9

Yo‘l transport hodisalarini turlari bo‘yicha taxlili, Bunyodkor ko‘chasida sodir etilgan yo‘l transport hodisalarning 48% ni piyodalarni bosish, 40 % ni to‘qnashuv va qolgan 12 % ni boshqa turdagи hodisalar tashkil etganligi ko‘rsatib turibdi.

(1-rasm)

Tahlil natijasi iyul, avgust va sentyabr hamda noyabr oylarida yo‘l transport hodisalar soni keskin ko‘payganligi va ularning oqibatida halok bo‘lganlar va jarohat olganlarning sonini ham oshganligini ko‘ramiz. Bu yerda may va dekabr oylari ko‘rsatkichlari xam yuqoriliginini ta’kidlash kerak bo‘ladi.


*1-rasm. YTH larni oylar bo‘yicha tahlili gistogrammasi*

Yo‘l transport hodisalarini xaftha kunlari bo‘yicha taxlilini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin.

2-jadval

YTH	Hafta kunlar						
	D	Ses	CHor	Pay	Ju	S	Yak

	us h	h			ma	han	
Umumiy soni	14	21	17	20	21	13	14
Halok bo‘lganlar	0	2	3	2	1		0
Jarohat olganlar	10	7	9	11	15	17	9



2-rasm. Xafta kunlari bo‘yicha YTH lari taqsimlanish siklogrammasi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki:

- Xafta kunlari bo‘yicha YTH larining taqsimlanishi juma va seshaba kunlari eng ko‘p ko‘rsatkich (17.5% ni tashkil etgan, shanba yakshanba va dushanba kunlari ko‘rsatkich kam bo‘lgani bilan 12% dan yuqori bo‘lib qolmoqda) va o‘sha kunlari eng ko‘p YTH lari kuzatilmoqda.
- YTH lari oqibatida juma(4 ta) va chorshanba(3 ta) kunlari xalok bo‘lganlar soni 7 kishini tashkil qiladi.
- YTH lari oqibatida tan jaroxati olganlar seshanba(23 ta) va juma(25 ta) kunlari 48 tani, umumiy xafsta hisobida 146 kishini tashkil etadi.
- YTH larni sodir bo‘lishida piyodalarining ulushi sezilarli ko‘p bo‘lganligini e’tiborga olgan holda ularni kamaytirish va YTH larni oldini olish uchun taxlillar hamda yo‘l sharoitini o‘rganib chiqish va yana piyodalar harakati tavsiflaridan kelib chiqqan holda bajarilishi kerak bo‘lgan tadbirlarni belgilab olish va ularni amalga oshirish kerak bo‘ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Ulug‘bek Boliqul o‘g‘li, M. . (2022). Dvigatel konstruktsiyasi va ishchi jarayonlarini boshqarishni mukammallashtirish. Scientific Impulse, 1(4), 536–542. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/17642>
- 2.Mizrabov Ulug‘bek.Sultanov Azizbek.Jamoat transportlari yo‘nalishlarida harakat miqdori va tarkibini tadqiq qilish Научный импульс № 7 (100) Февраль 2023 г
- 3.Mizrabov Ulug‘bek Boliqul o‘g‘li Assistant of Jizzakh Polytechnic Institute Studying the Quantity and Composition of Traffic in Public Transport Directions Genius Journals Publishing Group, Brussels, Belgium
- 4.Boliqul o‘g‘li M. U. et al. Road traffic safety and its impact on the development of modern roadtransport expertise //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 7. – С. 157- 164.
- 5.Адилов, О. К., Умиров, И. И., & Абдурахманов, М. М. (2021). Анализ существующих работ, посвященных проблемам экологии автомобильного транспорта. Вестник науки, 2(2), 74- 82.
- 6.Mizrabov Ulug‘Bek Boliqul O‘G‘Li, Sultanov Azizbek Ismoiljon O‘G‘Li Avtomobillar xarakat xavfsizligiga fal ta’sir qiluvchi ekspluatatsiyaviy ko‘rsatkichlari. // Механика и технология. 2022. №Спецвыпуск 2.